

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ**

**ЖИСМОНИЙ МАДАНИЯТ ФАКУЛЬТЕТИ**

**ҲОЗИРГИ ТАРАҚҚИЁТ БОСҚИЧИДА ХОТИН-ҚИЗЛАР  
СПОРТИ: МУАММОЛАР ВА ИСТИҚБОЛЛАР**

**ЖЕНСКИЙ СПОРТ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ:  
ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ**

**WOMEN'S SPORT AT THE PRESENT STAGE:  
PROBLEMS AND PROSPECTS**

**Халқаро илмий-амалий анжумани материаллари  
2020 йил 6 май**

**Бухоро - 2020**

XOTIN-QIZLARNING MILLIY XUSUSIYATLARI VA HOZIRGI DAVR JISMONIY MADANIYATNINNG TA'SIRI Keldiyorov.Sh.....	354
АЁЛЛАР БАСКЕТБОЛИНИНГ ҲОЗИРГИ ДАВРДАГИ ҲОЛАТИ ВА УНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ Фармонов Ў.А.....	356
PEDAGOGIKA TARIXIDA GIMNASTIKA Azimov.L.A.....	359
XOTIN-QIZLAR (AYOLLAR) SPORTI TARIXI VA RIVOJLANISHI Abduyeva S.S., G'afurov N.M. ....	362

## VII



### ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ЖАРАЁНИДА, СПОРТ ТРЕНИРОВКАСИДА ИННОВАЦИОН ШАКЛЛАР, ВОСИТАЛАР ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР

### ИННОВАЦИОННЫЕ ФОРМЫ, СРЕДСТВА И ТЕХНОЛОГИИ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ, СПОРТИВНОЙ ТРЕНИРОВКЕ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЯХ

### INNOVATIVE FORMS, MEANS AND TECHNOLOGIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS IN PHYSICAL EDUCATION, SPORTS TRAINING IN EDUCATIONAL INSTITUTIONS

ПОДГОТОВКА ПРЕПОДАВАТЕЛЯ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННЫХ ВЫЗОВОВ Маъмуров Б.Б., Киличев А.А., Кулишов В.В.....	364
МЕТОДИКА ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ СТУДЕНТОК ВЫСШИХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ НА ОСНОВЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ КОМПЛЕКСОВ «УЗБЕК ЖАНГ САНЪАТИ» Халмухамедов Р.Д., Ражабов Г.К., Махмудова М.М.....	366
СПОРТЧИ ФАОЛИЯТИДА ИРОДА ВА ИРОДАВИЙ СИФАТЛАРНИНГ НАМОЁН БЎЛИШИ Баротов Ш.Р., Носиров Ж.Ш.....	370
ҲАРАКАТЛИ ЎЙИНЛАР ОРҚАЛИ ЁШ ЕНГИЛ АТЛЕТИКАЧИЛАРНИ ПСИХОЛОГИК ТАЙЁРГАРЛИГИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ САМАРАДОРЛИГИ Абдуллаев М.Ж., Жунайдуллаев М.....	374
ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА ПРИ ОБУЧЕНИИ УПРАЖНЕНИЯМ НА ГИМНАСТИЧЕСКОМ БРЕВНЕ Моргунова И.И.....	376
СРАВНИТЕЛЬНАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА АНТРОПОМЕТРИЧЕСКИХ ПАРАМЕТРОВ ДЕВОЧЕК, ЗАНИМАЮЩИХСЯ ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ГИМНАСТИКОЙ Исмадова М.И., Тешаев Ш.Ж.....	379
ПРОБЛЕМА ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВУЗах СПОРТИВНОЙ НАПРАВЛЕННОСТИ Частоедова А.Ю., Ирнарарова В.Л.....	382
13-14 ЁШЛИ ФУТБОЛЧИЛАРНИНГ КУЧ СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ УСУЛЛАРИ Рўзикулов Б.Б.....	385



кўрсаткич 15 литрдан зиёддир. Аёллар организмидаги аэробик ва анаэробик имкониятлар тақчиллигига яраша уларда жисмоний иш қобилияти эркаклардаги иш қобилиятининг учдан икки қисмини ташкил қилади. Кам оғирлик тушганда аёлларда эркакларга нисбатан иш қобилиятининг учдан икки қисмини ташкил қилади.

**Баскетболчи аёлларни тайёрлаш услубияти** - Ҳозирги даврдаги баскетболда ижрочилик маҳорати атлетизм ва тезлик техникаси ҳамда ушбу омилларни муваффақиятли амалга оширишга асосланган. Шундан келиб чиққан ҳолда баскетболчи қизларни тайёрлаш методологиясидаги таянч нуктаси сифатида куйидагиларни қайд этиш мақсадга мувофиқдир: ҳар томонлама интенсивлаш, кўп йиллик атлетик тайёргарлик, узлуксиз ўйин тайёргарликлари, босқичма-босқич индивидуаллаш[4].

Интенсивлашиш - ҳозирги даврдаги баскетболда умумий ва етакчи тенденциядир. Ушбу тенденция ўйин давомида ҳаракатларнинг зичлигини оширишда, яъни маълум вақт давомида уларнинг сонини ошишида, техник ва тактик усуллари умумий тарзда ва уларнинг алоҳида қисмларини бажаришда намоён бўлади. Шундан эътиборан машғулот оғирликлари мусобақалар давомида тушадиган оғирликларга мувофиқ бўлиши хусусидаги асосий педагогик қоидага риоя қилиш борасидаги масала кўндаланг бўлади.

Мураббийлар орасида ҳозирда ҳам «аёллар баскетболида интенсивлаштиришга имконият борми?» деган савол тез-тез қўйилади. Биринчидан, онтогенез хусусида машғулотлардаги интенсивликни оқилона ва изчил тарзда ошириш ҳақида гап кетади. Иккинчидан, баскетболчи қизларни тайёрлашда интенсивлаш йўли танланмас экан, функционал тайёргарлик бобида улар ўйин фаолиятининг ҳозирги қоида-қонунларини қабул қилишга қодир бўлмайдилар[5].

Баскетболчи қизларни тайёрлашни интенсивлаш билан боғлиқ бўлган методологик йўл-йўриқларини аниқ амалга ошириш тайёргарликнинг замонавий, илғор услубларини, биринчи навбатда интервал билан боғлиқ бўлган услубни қўллашга асосланган бўлиши шарт. Бунда шу нарсани ҳисобга олиш керакки, интервал усулини қўллаш мобайнида кўпроқ ўзгарувчан элемент бўлиб дам олиш вақти хизмат қилади.

#### Адабиётлар рўйхати:

1. Ганиева Ф.В. Хужумда жамоа булиб ҳаракат қилишни уюштиришда кулланиладиган машқлар. Усл.қуланма. 1998.
2. Костикова Л.В. Система контроля в подготовке баскетболистов высокой квалификации. М., ФиС, 1986
3. Бриль М.С. Отбор в спортивных играх. М., ФиС, 1980
4. Соколова Н.Д. Применение некоторых вариантов позиционного нападения при игре в баскетбол. Метод.рекомендации. Т., 1998.
5. Соколова Н.Д. Упражнения применяемые при обучении ловли и передачи мяча в баскетболе. Метод.рекомендации. Т., 1993

## PEDAGOGIKA TARIXIDA GIMNASTIKA

*Azimov. L.A., o'qituvchi,  
Buxoro davlat universiteti, Buxoro, O'zbekiston*

**Аннотация:** *Ushbu maqolada gimnastikaning kelib chiqishi, turi, rivojlanish tarixi, dunyo mamlakatlarda gimnastikaning kirib kelishi haqida ma'lumot berilgan. Pedagogika tarixida Komenskiy, Pestalotsi, Jan Jak Russo, Fit va Guts, A.Shpits kabi olimlarning gimnastika rivojiga qo'shgan nazariy va amaliy hissalarini, nazariyalari, fikr-mulohazalari bayon etilgan. Gimnastika taraqqiyoti yo'nalishlari izohlab o'tilgan.*

**Калит со'злар:** *gimnastika, turlari, Olimpiada o'yinlari, Qadimgi Yunoniston, erkaklar musobaqalari, ayollar musobaqalari, jismoniy tarbiya, gimnastik harakatlar, elementlar, Fransuz gimnastikasi, Nemis gimnastikasi, Lochinlar gimnastikasi tizimi, gimnastika taraqqiyot yo'nalishlari.*

**Долзарблиги.** *Gimnastika yunoncha "gymnastics" - mashq qilaman degani bo'lib, jismoniy mashqlar tizimi, jismoniy tarbiyaning muhim turi hisoblanadi. Kishilarning jismoniy jihatdan har tomonlama o'sishiga va salomatligini mustahkamlashga, epchil, chaqqon, harakatchan bo'lishiga*



yordam beradi. Gimnastika o'z vazifalari, xususiyatlari va metodik usullariga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

1. Asosiy gimnastika (gigiyenik va atletik gimnastika b-n birga)
2. Gimnastikaning amaliy turlari (shu jumladan ishlab chiqarish gimnastikasi)
3. Sport gimnastikasi
4. Badiiy gimnastika
5. Sport akrobatikasi

Gimnastika mashqlarining ilk elementlari Qadimgi Yunonistonda jangovar tayyrgarlikda jismoniy harakatlarning bir qismi sifatida paydo bo'lgan.

Keyinchalik Olimpiada o'yinlari o'tkazila boshlangach esa yoshlarni Olimpiada o'yinlariga tayyorlash vositasi bo'lib xizmat qilgan. 18-asr oxiri — 19-asr boshlaridan Yevropa mamlakatlarida turli gimnastika asboblarida mashqlar bajarish, 19-asrning 2-yarmidan esa musobaqalar o'tkazish rasm bo'ladi. 1896-yildan gimnastika rasman Olimpiada o'yinlari dasturiga kiritildi va 1928-yildan ayollar ham musobaqalarda ishtirok eta boshlashdi. 1903-yildan erkaklarning, 1934-yildan ayollarning jahon birinchiligi o'tkazila boshlandi. Jismoniy tarbiya vositasi sifatida gimnastika uzoq vaqt mobaynida rivojlanib kelgan. Uning qaror topishi ijtimoiy tizim o'zgarishi va inson haqidagi fanning rivojlanishi bilan bog'liq. Shuningdek jang usullarining o'zgarib borishi bilan bog'liq bo'lgan.

Bular gimnastikaning mazmunan o'zgarishga uning o'qitish metodikasi hatto mashqlantirish texnikasining o'zgarishiga ham muhim ta'sir ko'rsatdi. XVIII-XIX asrlardan gimnastika tizimiga kirgan ayrim mashqlar qadimgi Rimda hamda G'arbiy Yevropaning bir nechta mamlakatlarida o'rta asrlardayoq harbiy-ijtimoiy tayyorgarlik mashqlari sifatida qo'llanilgan edi. Akrobatik mashqlar va arqon ustidagi mashqlarni ko'chama-ko'cha tomosha ko'rsatib yurgan darbadar artistlar namoyish qilishgan. Gumanistlar esa yoshlarni har tomonlama tarbiyalashga katta ahamiyat bera boshladilar. Gimnastika mashg'ulotlarini ular insonning sog'lig'ini mustahkamlash va jismoniy kuchni rivojlantirishning eng yaxshi vositasi deb bilardilar.

Yangi davr gimnastikasi Y.A.Komenskiy asarlari va uning didaktik prinsiplari tizimi XVIII asr pedagogikasi yorqin namoyondalari Jan-Jak Russo (1712-1778) va Pestalotsi (1746-1827) dunyoqarashlarining taraqqiyotiga yordam berdi. Buyuk pedagoglarning jismoniy tarbiya sohasidagi xizmatlari shundan iboratki, ular gimnastikaning chinakam tiklanishiga turtki berdilar. Russo jismoniy mashqlar inson tanasini mustahkamlaydi va toblaydi, kuch va harakat imkoniyatlarining rivojlanishi uchun kerakli sharoit yaratib beradi, yashash uchun tayyorlaydi, aqliy kamol topishga hamda salomatlikni mustahkamlashga yordam beradi deb hisoblagan. Russo, Pestalotsi va boshqa o'sha zamon pedagog arboblarining pedagogik g'oyalari G'arbiy Yevropa mamlakatlarining burjua ziyolilari tomonidan qo'lab-quvvatlanar edi.

XVIII asrning 70 yillarida ayrim shaharlarda yangi tipdagi maktablar - filantropinlar tuzila boshlandi, bu maktablarda nemis milliy gimnastikasi yuzaga kela boshladi. Fit (1763-1836) va Guts-Mutslar (1759-1839 yillar) filantropinlardagi gimnastikaning eng mashhur rahbarlari edilar. Fit uch tomlik asarida "Gimnastika haqida"gi nazariy va amaliy ma'lumotlarni bayon qilib bergan. U mashg'ulotlardan maqsad salomatlikni mustahkamlash kuch va harakat tezligini rivojlantirish, qomatning chiroyli bo'lishiga erishish, aqliy rivojlanish va psixik faoliyatga ko'mak berishdir deb hisoblar edi. Fit o'z asarida bir qancha qimmatli metodik ko'rsatmalar berdiki, ular hanuzgacha ahamiyatini yo'qotmagan. XVIII asr oxirlariga kelib yangi zamon gimnastikasining nazariy asoslari ko'zga tashlana boshladi.

Milliy gimnastika tizimlarining yaratilishi XIX asr boshlariga to'g'ri keladi va bu ijtimoiy talablar oqibati edi. Jang qilish usullari bir vaqtda harakat qilishni, buyruqlarning aniq bajarilishini, jang maydonida saflanishlarni va h.k.larni talab qilar edi. Davr pedagoglari va shifokorlariga gimnastika yoshlarni jismoniy tarbiyalashning birdan-bir to'g'ri metodi bo'lib ko'rinar edi. XIX asrlarning birinchi yarmiga kelib gimnastika taraqqiyotida uchta yo'nalish ko'zga tashlana boshladi :

- gigiyenik yo'nalish (gimnastika odamning salomatligini mustahkamlash va jismoniy kuchni rivojlantirish vositasi hisoblanadi) ;



- atletik yo'nalish ( gimnastik murakkab mashqlar, shu jumladan gimnastika inshootlarida bajariladigan mashqlarni qo'llash yo'li bilan odamning harakat imkoniyatini rivojlantirish vositasi deb hisoblanardi);

- amaliy yo'nalish ( gimnastika jangda uchraydigan turli to'siqlardan oshib o'tishni soldatlarga o'rgatish vositasi bo'lib hisoblanardi).

Nemis gimnastika tizimi Napoleon qo'shinlari Prussiyani egallab turgan davrda tarkib topa boshladi. Fit Yan ( 1778-1852) gimnastikadan mamlakatni bosqinchilardan ozod qilish maqsadida yoshlarga harbiy tayyorgarlik berish uchun foydalanilishiga intildi. Gimnastika inshootidagi mashqlar va harbiy o'yinlar bu tizimning asosini tashkil qilar edi. A.Shpits ( 1810-1858) nemislar turnirini maktabda o'qitishga moslashtirdi va dars sxemasini tuzib chiqdi. Biroq bu bolalar tashabbusini bug'ib qo'yar, ularning individual qobiliyatlarining o'sishiga xalaqit berar, eng muhimi, o'sha vaqtdagi tibbiy va pedagogik fanlardagi ko'pgina fikrlarga to'g'ri kelmas edi. Ana shu kamchiliklar juda ko'p e'tirozlarga sabab bo'ldi. Shved gimnastika tizimi. Shved gimnastika tizimi nemis gimnastikasi bilan ketma-ket paydo bo'lgan. Unda gigiyena yo'nalishi yaxshi ishlab chiqilgan edi. P.Ling ( 1776-1839) gimnastikani XIX asrning birinchi yarmida Daniyada o'rgana boshladi. O'sha vaqtlarda gimnastika yoyilganligi jihatidan Daniya G'arbiy Yevropadagi ilg'or mamlakatlardan biri edi. 1813 yilda P. Lingning tashabbusi bilan Stokgolmda maxsus institut ochildi. P.Ling u yerda o'zining jismoniy tarbiya metod va vositalarini qo'lladi. U kishi sog'likni mustahkamlaydigan va kamol toptiradigan mashqlardan foydalanish kerak deb hisoblanardi. Ammo u gimnastikaning pedagogik ahamiyatini hisobga olmagan edi. Uning o'g'li Ya.Ling ( 1800-1886) otasi boshlagan ishni davom ettirib dars sxemasini ishlab chiqdi. Shved gimnastika darsi qat'iy tartibda birin-ketin keladigan 16 qismdan iborat sxemaga binoan tuzilgan edi.

Fransuz gimnastika tizimi asosan harbiy-amaliy yo'nalishida bo'lib shved tizimi bilan deyarli bir vaqtda shakllandi. Fransiyada gimnastika tizimini yaratgan kishi Amoros ( 1770-1848 yillar) bo'ldi. U A.V. Suvorovning harbiy jismoniy tayyorlov tizimi bilan tanish bo'lib bundan o'z tizimini yaratishda foydalandi. Hayotda va harbiy jarayonda zarur bo'lgan ko'nikmalar orttirishga yordam beradigan mashqlar to'siqlar qo'yilgan ochiq joyda yurish va yugurish, aslaha-anjomlar bilan turli holatlarda sakrash, yukni yoki "yaradorni" joydan-joyga ko'tarib o'tish suzish va shung'ish, kurash otish, uloqtirish, o'q otish, qilichbozlik mashqlarini u eng yaxshi mashqlar deb hisoblar edi. Dars vaqtida Amoros muayyan sxemaga rioya qilmagan. U quyidagi umumiy prinsiplarni belgilab olgan edi xolos, ya'ni mashqlar shug'ullanuvchilarga tushunarli va mumkin qadar sodda bo'lishi kerak bo'lgan. Ularni birin-ketin yengildan qiyinga, soddadan murakkabga o'ta boorish tartibida bajarish kerak bo'lgan. Mashg'ulotlarda o'quvchilarning individual xususiyatlari hisobga olinishi kerak bo'lgan Fransuz gimnastikasi mashqlari rus armiyasida qo'llanilar edi.

Lochinlar gimnastika tizimi. Mazkur tizim Avstriya, Vengriya tarkibida bo'lgan slavyan xalqlarining milliy ozodlik kurashiga aloqador tarzda XIX asr o'rtalarida yuzaga keldi. Chexiyada "lochinlar harakati" paydo bo'ldi va "Lochinlar gimnastika sistemasi" tuzila boshlandi. O'z vatanini Avstriya zulmidan ozod qilishga intilgan. Vatanparvarlik kayfiyatidagi liberal burjuaziya vakili Praga universitetining estetika va sa'nat tarixi professori M.Tirsh ( 1832-1884 yillar) bu tizimning asoschisidir. Lochinlar gimnastika tizimi mazmun jihatidan nemis gimnastika tizimiga yaqin edi, ammo uning o'ziga xos xususiyatlari bor edi. Tirsh barcha holat-u harakatlar ijrochilari va tomoshabinlarning ruhini ko'tarish, quvonch va estetik zavq uyg'otadigan shaklda bo'lishiga intilgan edi. Lochinlar bir xildagi mashqlarni behisob takrorlash o'rniga bir nechta harakat kombinatsiyalarini kiritdilar. 1862 yildan boshlab esa gimnastika musobaqalari maxsus ishlab chiqilgan qoidalarga binoan o'tkaziladigan bo'ldi.

Gimnastikaning taraqqiyoti. Zikr etilgan tizimlarda sinfiy xarakter va milliy an'analar aks etilgan. XIX asr oxirlarida ilmiy asoslangan quyidagi dastlabki tizimlar Rossiyada P.F. Lesgaft ( 1837-1909 yillar) tizimi, Fransiyada J.Demsni ( 1850-1917 yy.) fiziolog va pedagog tizimi paydo bo'la boshladi. J.Demsni jismoniy tarbiyaga oid asar e'lon qildi. U mashqlar statik emas balki dinamik bo'lishi, to'la amplitudada bajarilishi, shaklan nafis bo'lishi kerak deb hisoblar edi. Demsni salomatlikni mustahkamlash gavda tuzilishi va harakatlarning nafisligiga erishishni, kishining chaqqonligi va irodaviy xislatlarini rivojlantirishni jismoniy tarbiyaning vazifasidir deb



hisoblangan. XIX asr oxirlarida va XX asr boshlarida gimnastikaning yangi turlari paydo bo'ldi, jumladan badiiy va ritmik gimnastikaning yangi turlari tashkil topdi, tibbiyotning sohalaridan biri bo'lib qolgan davolash gimnastikasi, ko'proq gigiyenik yo'nalishida bo'lgan individual gimnastika tizimi ( Myullerning "Mening tizimim", Saidovning "Gantelli gimnastikasi", Porshekning. Anoxining "Individual gimnastika tizimi va h.k) keng qo'lanildi.

Gimnastikaning butun jahonda rivojlanishi Olimpiya o'yinlari va turli sport musobaqalari, chiqishlarning ahamiyati juda katta bo'ldi. Xalqaro sport musobaqalarida sport gimnastikasi va badiiy gimnastika bo'yicha chempionlar yetishib chiqayotgani bu borada kadrlar tayyorlash ishlari davlat dasturlariga kiritilgani, sport inshootlari va asbob-uskunalarini tayyorlash kengaytirildi. Jismoniy tarbiyaning muhim yo'nalishi bo'lgan gimnastika insoniyat sog'lom turmush tarzining ajralmas qismi bo'ldi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi (o'quv qo'llanma). – T., 1996.
2. William Harold Payne. Gabriel Compayre Ulan. History of pedagogy. Press. 2012
3. [www.edu.UZ](http://www.edu.UZ)
4. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz)

### XOTIN-QIZLAR (AYOLLAR) SPORTI TARIXI VA RIVOJLANISHI

*Abduyeva S.S., o'qituvchi, G'afurov N.M., o'qituvchi,  
Buxoro davlat universiteti. Buxoro. O'zbekiston*

**Annotatsiya:** *Ayollarning sportdagi ishtiroki va ommaviyligi keskin o'sishi, Olimpiya o'yinlarida paydo bo'lishdi. Har bir sport turlarida ayollar va ayollar jamoalari musobaqalarda ishtirok etib etishi. Ayollar va erkaklarning teng-huquqlikdagi kurashi.*

**Kalit so'zlar:** *Qadimgi Olimpiya o'yinlari, ayollar sporti, xalqaro konferensiya.*

**Dolzarblik:** Ayollar sporti tarixiy davrlardan beri kamsitilib, ayollar, qiz bolalarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlariga qarshi bo'lib kelingan. Zamon o'zgarishi va qizlar, ayollarning sportga bo'lgan intilishlari va qiziqishlari ortib borgani sayin maktab va gimnaziyalarda ayollar, qizlar uchun mos sport o'yinlari kashf qilingan. Qator olimlarning Bell Richard, Woolum Janet, Arnd Krüger, Leigh Marylarning izlanishlari natijasida ayollar sportiga bo'lgan teng huquqiylik va ilmiy izlanishlar qilish kerakligini ko'rsatdi. Bugungi kunda ayollar sportining rivojlanib barqarorlashib kelayotganligini tarixiy yondashuv asosida ko'rib chiqishni namoyon qilmoqda.

**Tadqiqot maqsadi:** Ayollarning jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishlarini oshirish va eskicha qarashlarni bartaraf etish.

**Tadqiqot metodi:** Adabiy manbaalarni tahlil qilish metodi

Ayollar sporti dunyo bo'ylab asrlar davomida sportning barcha turlarida ham havaskor va hamda professional sport turlarida mavjud bo'lgan. XX asrda, ayniqsa so'nggi chorak asrda, ayollarning sportdagi ishtiroki va ommaviyligi keskin o'sdi, bu gender tengligini ta'kidlaydigan zamonaviy jamiyatlardagi o'zgarishlarni aks ettiradi. Garchi ishtirok etish darajasi va ishlash darajasi mamlakat va sport turlaridan farq qilsa ham, bugungi kunda butun dunyoda ayollar sporti qabul qilinadi.

Biroq, ayollarning sportdagi ishtiroki o'sishiga qaramay, ayollar va erkaklar o'rtasidagi ishtirok etish darajasida katta tafovut saqlanib qolmoqda. [1] Ushbu tafovutlar dunyo miqyosida keng tarqalgan va sportdagi tenglikka halal berishda davom etmoqda. Ko'pgina muassasalar va dasturlar hanuzgacha konservativ bo'lib qolmoqda va sportda gender tengligiga hissa qo'shmaydilar.

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, qadimgi Rimda ayollar sport bilan shug'ullanishgan. Qadimgi Olimpiya o'yinlari oldidan, Xer ma'budasiga bag'ishlangan Gera o'yinlari, Olimpiya shahridagi xuddi shu stadionda sport musobaqalari bo'lib o'tilgan. Afsonaga ko'ra, Gereya Olimpiyadaga asos solgan qirolning rafiqasi Gippodamiya tomonidan tashkil etilgan. E. Norman Gardinerga izlanishlariga ko'ra: